

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

KO'KYO'TAL KASALLIGINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sotvoldiyev Muzaffar Zaynqidin o'g'li

Yuqumli kasalliklar kafedrasi

Andijon Davlat tibbiyot instituti

O'zbekiston, Andijon

Kirish

Ko'kyo'tal – Bordetella pertussis bakteriyasi sabab bo'ladigan yuqumli kasallik. Kasallik asosan yosh bolalarda uchrab, qattiq yo'tal xurujlari bilan tavsiflanadi. Emlash mayjud bo'lsada, ko'kyo'tal hali ham butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda.

Tarqalishi: Juhon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ko'kyo'tal bilan kasallanish darajasi turli mamlakatlarda farq qiladi, emlash qamrovi yuqori bo'lgan davlatlarda kasallik kam uchraydi. O'zbekistonda ham 2-3-4 oylik bolalarni Pentavalent (AKDS+VGV+XIB) hamda 16 oylik bolalarni AKDS (DTP) vaksinatsiya dasturlari orqali kasallikning oldini olishga katta e'tibor qaratiladi, lekin ayrim chekka hududlarda emlash darajasi past bo'lib qolmoqda.

Epidemiologik xususiyatlar: Ko'kyo'tal asosan havo-tomchi yo'li orqali yuqadi va yosh bolalarda kasallik o'tkir kechadi. Kasallikning yuqori yuquvchanligi tufayli maktab va bolalar bog'chalari kabi zich joylarda ko'p tarqaladi. Emlash o'tkazilmagan shaxslar, ayniqsa, katta xavf guruhiga kiradi.

Klinik manzara va asoratlar: Kasallikning asosiy belgisi – qattiq yo'tal xurujlari. Ko'kyo'talning asoratlari, masalan, o'pka yallig'lanishi va miya shikastlanishi o'lim xavfini oshiradi.

Profilaktika va davolash: Ko'kyo'talga qarshi emlash samaradorligi yuqori. O'zbekistonda Pentavalent (AKDS+VGV+XIB) hamda AKDS (DTP) vaksinalari orqali ko'kyo'talni nazorat qilishga intilmoqda. Davo choralarini orasida antibiotiklar va simptomatik muolajalar mavjud.

Xulosa.

Ko'kyo'talning yuqori yuquvchanligi va xavfi tufayli, emlash dasturlarini kengaytirish zarur. Profilaktika choralarini kasallik tarqalishini samarali ravishda kamaytiradi. Kelajakda kasallikni butunlay yo'q qilish uchun aholini emlash bilan to'liq qamrab olish kerak.